

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

OLMASOV AXMAD ASADOVICH

**ULTRA YUQORI CHASTOTA DIAPAZONIDA RADIOMONITORING
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MODEL I VA ALGORITMI**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va
qurilmalari. Mobil, tolaoptik aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Olmasov Axmad Asadovich

Ultra yuqori chastota diapazonida radiomonitoring samaradorligini oshirishning modeli va algoritmi3

Олмасов Ахмад Асадович

Модель и алгоритм повышения эффективности радиомониторинга в ультра высокочастотном диапазоне21

Olmasov Akhmad Asadovich

Model and algorithm for increasing the efficiency of radio monitoring in the ultra-high frequency range.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....43

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

OLMASOV AXMAD ASADOVICH

**ULTRA YUQORI CHASTOTA DIAPAZONIDA RADIOMONITORING
SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MODEL I VA ALGORITMI**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televidenie tizimlari va
qurilmalari. Mobil, tolaoptik aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent–2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4895 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (reziyumi)) Ilmiy kengash web sahifasida (www.tuit.uz) va "ZiyoNet" axborot-talim portalida (www.ziynet.uz) joylangan.

Ilmiy rahbar:	Mirzoqulov Hotam Baxtiyor o'g'li texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Alimova Nodira Batirdjanovna texnika fanlari doktori, professor Shaxobiddinov Alisher Shopatxiddinovich texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	Harbiy xavfsizlik va mudofaa universitetining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "1" noyabr soat 11³⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 1000804, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-15; e-mail: info@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (375-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "21" oktabrda tarqatildi.
(2025 yil "21" oktabrdagi 13-raqamli registr bayonnomasi)

B.Sh.Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M.S.Saitkamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D.A.Davronbekov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi anotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ultra yuqori chastota (UHF) diapazonida radiomonitoring jarayonini samarali tashkil etishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. "Verified Market Reports" ma'lumotlariga ko'ra, Shimoliy Amerikada 2023-yilda UHF diapazonidagi qurilmalar bozori hajmi 900 million AQSH dollarini tashkil etgan bo'lsa, 2032-yilga kelib u o'rtacha yillik 8,5 foiz ko'payish sur'ati bilan 1,9 milliard dollarga, Osiyo-Tinch okeani mintaqasida 2023-yilda 650 million dollarlik bozor yiliga 11,0 foiz ortish sur'ati bilan 1,7 milliard dollargacha o'sishi kutilmoqda¹. Shu jihatdan, UHF diapazonidagi bu qurilmalarning aniq va xatosiz ishlashini ta'minlashda radiomonitoring jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda zamonaviy radioaloqa tizimlari va mobil aloqa texnologiyalarida ultra yuqori hamda o'ta yuqori chastota diapazonlarida ma'lumot uzatishning kengayib borayotgan hajmi, uzatish tezligi va sifati, signal barqarorligi va shovqinlarga chidamlilik, ma'lumot uzatish jarayonini samarali tashkil etish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan qator ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada muhitda tarqalayotgan katta hajmdagi, xalaqitlarga bardoshli kodlar bilan kodlangan signallarni aniqlash va tahlil qilish, yuqori samaradorlikka ega radiomonitoring tizimlarida signallarni aniqlash va tasniflash algoritmlarini ishlab chiqish hamda takomillashtirish, logoperiodik vibratorli antennalarni o'lchamlari va elektromagnit parametrlarini yaxshilash orqali ularning qamrovini, sezgirligini va chastota diapazonida ishlash samaradorligini oshirish, shuningdek, ushbu texnologiyalarni xalaqitlarga, tashqi muhit omillari va murakkab elektromagnit sharoitlarga nisbatan barqarorligini ta'minlash bo'yicha texnologiyalarga yo'nalishtirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda radioaloqa va axborot texnologiyalari sohasini yanada takomillashtirish, mobil aloqa tizimlari qamrovini kengaytirish, ma'lumotlar uzatish tezligi va sifatini ta'minlaydigan tizimlarni rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida "Iste'molchilarga televideniyani uzatish, yer usti televideniyani oshirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televideniyani va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli oshirishni takomillashtirish"² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, radiomonitoring tizimlarining qabul qiluvchi qurilmalari samaradorligini oshirishga asoslangan signallarni dekodlashning yangi algoritmlari, takomillashtirilgan antennaning modeli hamda ularni tatbiq etishning nazariy asoslari va amaliy yechimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ <https://dataintel.com/report/global-ultra-high-frequency-uhf-receiver-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.

Respublikamizda radioaloqa tarmoqlarining samarali ishlashini ta'minlash, radiochastota spektridan foydalanish, teleradioeshittirish va mobil aloqa xizmatlari sifatini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 27-dekabrda "Telekommunikatsiya to'g'risida"gi O'RQ-1015-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 22-maydagi "O'zbekiston Respublikasi aholi punktlarida telekommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4939-sonli Qarori, 2020-yil 28-apreldagi "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4699-son Qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrda "Radiochastota spektridan foydalanish sohasida ruxsat etish hamda radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanishni tartibga solish to'g'risida" 801-son Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda radiomonitoring samaradorligini oshirish usullari va modellarini ishlab chiqish, ularda ishlatiladigan algoritmlar va antennalarni yaratishning nazariy shuningdek amaliy asoslari bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar dunyoning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan Stanford University (AQSH), Georgia Institute of Technology (AQSH), Harbin Engineering University (Xitoy), National University of Defense Technology (Xitoy), Yeungnam University (Koreya), Istanbul Aydin University (Turkiya), University of Toronto (Kanada), University of British Columbia (Kanada), Karlsruhe Institute of Technology (Germaniya), Dresden University of Technology (Germaniya), University of Cambridge (Buyuk Britaniya), Southampton University (Buyuk Britaniya), Sharif University of Technology (Eron), Artois University (Fransiya), Nihon University (Yaponiya), Amity University (Hindiston), V.F.Utkin nomidagi Ryazan davlat radiotexnika universiteti (Rossiya), Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (O'zbekiston) va boshqalarda amalga oshirilmoqda.

Radiomonitoring samaradorligini oshirishda signallarni ishonchli qabul qilish algoritmlari va texnik parametrlari takomillashtirilgan logoperiodik vibratorli antennalarni yaratish, ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish va ularni ma'lumot uzatish jarayonida xalaqitbardosh kodlash usullari yordamida qo'llash muammolari jahon ilmiy adabiyotlarida keng yoritilgan. K.Rothammel (Germaniya), Yongqing Fu (Xitoy), Fang Ye (Xitoy), M.Pehlivan (Turkiya), Golshan Piroozzadeh (Turkiya), Reza Asvadi (Turkiya), D.N.Kiselev (Rossiya), O.Yu.Perfilov (Rossiya), S.J.Johnson (AQSH), A.M.Rembovskiy (Rossiya)lar va boshqa taniqli xorijiy olimlarning ilmiy ishlari ushbu yo'nalishga bag'ishlangan. Radiomonitoring hamda antennalarning radioaloqa sohasidagi qo'llanilishi bo'yicha A.M.Nazarov, T.G. Raximov, D.A.Davronbekov, B.N.Rahimov, Sh.U.Pulatov,

D.N.Likontsev, V.A.Gubenko, H.X.Madaminov, A.Sh.Shaxobiddinov, A.Hotamovlar va boshqalarning ilmiy ishlari bag‘ishlangan.

Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida radiomonitoring samaradorligini oshirish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishilgan. Shu bilan birga radiomonitoring samaradorligini oshirishda signallarni ishonchli qabul qilish algoritmlari va texnik parametrlari takomillashgan kichik o‘lchamli logoperiodik vibratorli antennalar yaratish bilan bog‘liq ilmiy muammolar batafsil o‘rganilmagan.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, IL-77-8023102181 sonli “Hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni qamrab olgan “Innovatsion g‘oyalar banki”ni yaratish” (2024-2025) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Expectation Propagation (kutilmani tarqatish) algoritmi, Zero Padding (nol bilan to‘ldirish) usuli hamda takomillashtirilgan logoperiodik vibratorli antenna asosida ultra yuqori chastota diapazonida radiomonitoring samaradorligini oshirishning modeli va algoritmini yaratishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

radiomonitoring jarayonida qo‘llaniladigan signalni tanib olish usullari va zamonaviy logoperiodik vibratorli antennalar asosiy fizik parametrlarini tahlil qilish;

radiomonitoring jarayonida signallarni tanib olish aniqligini oshirish algoritmi va modelini tadqiq qilish;

keng chastota polosasi diapazonida ishlaydigan takomillashtirilgan logoperiodik vibratorli antennaning modelini ishlab chiqish;

yaratilgan logoperiodik vibratorli antennani amaliyotda qo‘llash orqali radiomonitoring jarayonining samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida radiomonitoring amalga oshiriladigan raqamli televideniye va mobil aloqa tizimlari signallari olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli televideniye va mobil aloqa tizimlarida radiomonitoring samaradorligini signallarni tanib olish usuli va yangi turdagi logoperiodik vibratorli antenna qurilmasi tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematik modellashtirish, imitatsion modellashtirish, elektromagnit maydonlarni tahlil qilish hamda tajribaviy-tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

expectation propagation (EP) algoritmini radiomonitoringga tatbiq etish orqali uning sifat ko‘rsatkichi parametrlarini yaxshilovchi LDPC kodli MIMO-OFDM tizimining modeli signallarni tanib olish jarayonida Bayes teoremasi asosida takomillashtirilgan;

radiomonitoring jarayonida uzatilgan va qabul qilingan signallar o‘rtacha kvadratik xatolik koeffitsiyentini aniqlash darajasini oshiruvchi zero padding (ZP) usuli asosida SISO-OFDM tizimining modeli takomillashtirilgan;

ultra yuqori chastota diapazonidagi signallarni belgilangan parametrlarning qiymatlari asosida tanib olish uchun expectation propagation (EP) algoritmi, zero padding (ZP) usuli va logoperiodik vibratorli antennani o'zaro bog'lanishi hamda integratsiya tamoyili orqali radiomonitoring samaradorligini oshirish imkonini beruvchi algoritm taklif etilgan;

LPDAning ochilish burchagini aniqlovchi matematik modelga dipollar orasidagi masofa koeffitsiyentini kiritish orqali yo'nalish diagrammasi va kuchlanish bo'yicha turg'un to'lqin koeffitsiyenti parametrlari konfiguratsiyalanadigan antenaning takomillashtirilgan fizik modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

radiomonitoring jarayonida signallarni tanib olishda qo'llaniladigan EP algoritmi va ZP usuli uchun immitatsion modellar ishlab chiqilgan;

mobil aloqa tayanch stansiyalari chastota diapazonlaridagi radioxalaqitlarni aniqlash va ishlash samaradorligini oshirish uchun logoperiodik vibratorli antenna ishlab chiqilgan;

ishlash samaradorligi oshirilgan LPDAning parametrlarini hisoblash uchun dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

radiomonitoring jarayoni ma'lumotlarini to'plash va tahlil qilish dasturi ishlab chiqilgan;

olis aholi yashash hududlarida televideniya xizmatini taqdim etish uchun o'rnatilgan kam quvvatli uzatgichlarning qabul qiluvchi antennasi o'rniga logoperiodik vibratorli antennani qo'llash orqali signal sathi yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, tizimli tahlil, matematik statistika va elektromagnit nurlanish nazariyasi, umume'tirof etilgan mezonlar asosida olingan natijalarni qiyosiy solishtirish orqali izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati LDPC kodli MIMO-OFDM tizimida expectation propagation (EP) algoritmini, SISO-OFDM tizimlarida zero padding (ZP) usulini va T-fraktal tuzilishga ega ishlash samaradorligi oshirilgan logoperiodik vibratorli antennani qo'llash asosida radiomonitoring jarayoni aniqligini oshirish uchun model ishlab chiqilganligi bilan baholanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati EP algoritmi va ZP usuli asosida signallarni tanib olish jarayonining immitatsion modellari, logoperiodik vibratorli antennalarni yaratishda ishlatiladigan dasturiy vosita, simmetrik ikki qismli logoperiodik vibratorli antenaning namunasi, radiomonitoring jarayonida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish dasturi, hamda ular asosida keng chastota diapazonida radiomonitoring jarayonining yaxshilanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hisoblash qonuniyatlaridan eng maqbullarini tanlagan holda xalaqitbardosh signallarni dekodlash va yarim mavhum kanalni baholashni optimallashtirishning immitatsion modellarini ishlab chiqish, texnik parametrlari takomillashtirilgan logoperiodik vibratorli antennalarning matematik va real modelini yaratish hamda radiomonitoring jarayonining samaradorligini oshirish usullari va modellari bo'yicha olingan natijalar asosida:

LPDAning ochilish burchagini aniqlovchi matematik modelga dipollar orasidagi masofa koeffitsiyentini kiritish orqali yoʻnalish diagrammasi va kuchlanish boʻyicha turgʻun toʻlqin koeffitsiyenti parametrlari konfiguratsiyalanadigan antenaning takomillashtirilgan fizik modeli hamda expectation propagation (EP) algoritmini LDPC kodli MIMO-OFDM tizimining mobil aloqa tayanch stansiyalari chastota diapazonlaridagi radioxalaqitlarni aniqlashda radiomonitoring jarayoniga tatbiq etish orqali uning sifat koʻrsatkichi parametrlarini samaradorligini oshirish usuli, yaratilgan logoperiodik vibratorli antenna hamda algoritm Oʻzbektelekom AK “OʻzMobayl” filiali Samarqand hududiy bogʻlamasida joriy etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 33-8/7493-sonli maʼlumotomasi). Natijada, Oʻzbektelekom AK “OʻzMobayl” filiali Samarqand hududiy bogʻlamasining 713,0-733,0 MHz, 733,0-748,0 MHz, 902,8-908,6 MHz, 1766,4-1784,8 MHz, 1965,0-1980,0 MHz chastota diapazonlarida ishlaydigan mobil aloqa tizimlari tayanch stansiyalarining sifatli ishlashiga taʼsir koʻrsatayotgan radioxalaqitlarni aniqlash samaradorligini 10,0 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan;

SISO-OFDM tizimining kam quvvatli uzatgichlarida qabul qiluvchi antenna sifatida logoperiodik vibratorli antenna hamda zero padding (ZP) usulini qoʻllash asosida signalni qabul qilish va tanib olishning takomillashgan modeli “RRTM” DUK Samarqand Radioteleuzatish markazida tatbiq etilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 33-8/7493-sonli maʼlumotomasi). Natijada taklif etilayotgan model asosida signal sathi 64,1 dB μ V/m ga teng, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan televizion antennada signal sathi 59,1 dB μ V/m boʻlgan. Bunda taklif etilayotgan logoperiodik vibratorli antenna yordamida 8,5 foizgacha signalni samarali qabul qilish imkoni yaratilgan;

ultra yuqori chastota diapazonidagi signallarni belgilangan parametrlarning qiymatlari asosida tanib olish uchun expectation propagation (EP) algoritmi, zero padding (ZP) usuli va logoperiodik vibratorli antenaning takomillashtirilgan fizik modeli oʻzaro bogʻlanishi hamda integratsiya tamoyili orqali radiomonitoring samaradorligini oshirish imkonini beruvchi algoritm “UMS” MChJ Samarqand shahar xizmat koʻrsatish markazida qoʻllanilgan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2024-yil 6-noyabrdagi 33-8/7493-sonli maʼlumotomasi). Natijada, “UMS” MChJ Samarqand shahar xizmat koʻrsatish markazi 804,0-815,0 MHz, 935,0-960,0 MHz, 1805,0-1870,0 MHz, 2110,0-2170,0 MHz chastota diapazonlarida ishlaydigan mobil aloqa tizimlari tayanch stansiyalarining sifatli ishlashiga taʼsir koʻrsatayotgan radioxalaqitlarni aniqlash samaradorligini 13,2 foizgacha oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarini aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalar hamda ilmiy seminarlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi boʻyicha jami 24 ta ilmiy ish chop etilgan, ulardan 9 ta maqolalar Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan jurnallarda, shu jumladan 5 ta respublika

va 4 ta chet el ilmiy jurnallarida nashr etilgan, 3 ta EHM uchun dasturga guvohnomalari olingan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, natijalarning ishonchligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dessertatsiyaning **“Radiomonitoring jarayonida antenna texnologiyalari va signallarni tanib olish algoritmlarining ahamiyati”** deb nomlangan birinchi bobi radiomonitoring jarayonini tashkil etish, undagi muammolar, radiomonitoringda qo'llaniladigan antennalar, ularning tasniflanishi, logoperiodik vibratorli antennalarning radiomonitoringda qo'llanilishi bo'yicha umumiy ma'lumotlar va radiomonitoring samaradorligini oshirishda ma'lumotlarni tanib olish algoritmining o'rnini kabi masalalarni tadqiq qilishga bag'ishlangan. Raqamli radioaloqaning jadal rivojlanishi natijasida hozirgi kunda simsiz aloqa tizimlari orqali juda katta hajmdagi ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishga to'g'ri kelmoqda. Bu esa radiochastota spektrining monitoringini amalga oshirishga ham katta talablar qo'yilishiga olib kelmoqda. Uzatilayotgan ma'lumotlarning tezligi hamda hajmiga o'sib borayotgan doimiy ravishdagi talablar natijasida, radiomonitoring tizimlari yordamida ruxsat etilmagan radiochastota spektri foydalanuvchilari faoliyatini aniqlashda va bartaraf etish juda ko'p murakkabliklarni keltirib chiqarishi ko'rsatilib o'tilgan.


Radiomonitoring jarayonini tashkil etishning usullari va uni amalga oshirishdagi muammolar tahlil qilingan. Bugungi kunda radiomonitoring jarayonida qo'llaniladigan antennalarning shakli, qutblanishi, chastota diapazoning kengligi, yo'nalish diagrammasi va signalni kuchaytirish usullari tahlil qilingan va o'rganib chiqilgan. Radiomonitoring jarayonini samarali tashkil etishda logoperiodik vibratorli antennalardan foydalanishning afzalliklari, radioaloqani tashkil etishda ushbu turdagi antennadan foydalanishning o'ziga xos hususiyatlari keltirib o'tilgan. Logoperiodik vibratorli antennalarning asosiy parametrlari va turlarini tahlil qilish asosida ushbu turdagi antennalarning boshqa antennalarda kuzatilmaydigan hususiyatlari aniqlandi.

Adabiyotlar tahlili bugungi kunda radiomonitoring tizimlarida qo'llanilayotgan va loyihalananayotgan turli tuzilishdagi LPDAning hususiyatlari tahlil qilib chiqildi va olib borilgan tahliliy tadqiqot ishlari davomida bugungi kunda radiomonitoring jarayonida yo'naltirilgan, keng chastota diapazonida, yuqori

ishlash samaradorligiga ega ixcham antenna qurilmalariga talab yuqoriligini ko'rsatdi.

EP algoritmi ilmiy maqolalar yordamida tahlil qilindi va radiomonitoring tizimiga ushbu algoritmi tatbiq etib samaradorlikni oshirish imkoniyati mavjudligi ko'rsatib o'tildi.


Dessertatsiyaning "**Radiomonitoringda signalni tanib olish jarayonida EP algoritmi va ZP usulining ahamiyati**" deb nomlangan ikkinchi bobida past zichlikdagi juftlikni tekshirish kodi yordamida uzatilayotgan raqamli signallarni kodlash va dekodlash, OFDM tizimlarida optimallashtirilgan yarim mavhum kanalni baholash usulining radiomonitoringdagi o'rni, hamda signallarni tanib olish va samarali qayta ishlash algoritmi asosida katta o'lchamli MIMO-OFDM tizimlarida radiomonitoring jarayonini takomillashtirish ko'rib chiqilgan. EP algoritmi asosida signalni tanib olish jarayonining ishlash ketma-ketligi 1-rasmda tasvirlangan bo'lib, unda algoritmning asosiy bosqichlari va hisoblash jarayonlari ko'rsatib berilgan.



1-rasm. LDPC kodli MIMO-OFDM tizimida EP asosida signalni tanib olish jarayonining algoritmi.

Simvollarni aniqlash yoki MIMO-OFDM tizimini LDPC kodlash bilan dekodlash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan takomillashga ma'lumotni aniqlash usullariga e'tibor qaratildi va kutilmani tarqatish algoritmi EP radiomonitoringda taxminiy xulosa chiqarishning samarali usuli sifatida tanlab olingan. LDPC kodlarining radiomonitoring jarayonini tashkil etishda qo'llashning asosiy sabablari keltirib o'tilgan.


EP asosidagi signalni tanib olish algoritmi iterativ qayta hisoblash usulidan foydalanib, signalning statistik parametrlarini yaxshilash va shovqin ta'sirini minimallashtirishga xizmat qiladi. Ushbu algoritm yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.



2-rasm. LDPC kodli MIMO-OFDM tizimida MMSE BP va EPD BPning taqqoslanishi.


OFDM tizimlarida optimallashtirilgan yarim mavhum kanalni baholash usuli radiochastota spektri holatini kuzatishda samarali yondashuvdir. Optimallashtirilgan yarim mavhum usul aloqa kanalining xususiyatlarini, masalan, susayish, ko'p yo'nalishli tarqalish, vaqt kechikishi va boshqalarni samarali baholashga imkon beradi, bu qabul qilgichda olingan signallarni to'g'ri talqin qilish va tahlil qilishga yordam beradi.

Yarim mavhum kanalni baholash usullari aloqa tizimlarida signal uzatish sifati va qabul qiluvchi qurilmaning ishlash samaradorligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ortiqcha chiziqli oldindan kodlashga asoslangan yarim mavhum kanalni baholash usuli ishlab chiqilgan bo'lib, u uzatish samaradorligini oshirish va interferensiyani kamaytirishga qaratilgan. Biroq, ushbu usulni amalga oshirishda kanal matritsassini qurish jarayoni muayyan murakkabliklarni keltirib chiqaradi. yarim mavhum kanal baholashni yanada takomillashtirish uchun optimal matritsa tuzilishini aniqlash va hisoblash murakkabligini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yondashuv yuqori o'lchamli Single Input, Single Output (Bir kirish, bitta chiqish, SISO) asosidagi OFDM tizimlarida signalni ishonchli qayta tiklash va interferensiyani kamaytirishga yordam beradi.



3-rasm. SISO-OFDM tizimining ZP usuli asosida takomillashgan modeli.


SISO-OFDM tizimining ZP usuli asosida takomillashtirilgan algoritmi va modeli ishlab chiqilgan (3-4-rasm).



4-rasm. ZP usuli asosida SISO-OFDM tizimining imitatsion modelini amalga oshirish algoritmi.


Mazkur algoritm SISO-OFDM tizimlarida ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish jarayonlarini yaxshilashga xizmat qiladi. ZP usuli uzatiladigan SISO-OFDM signallarining oraliq intervallariga nol qiymatlar qo'shish orqali interferensiyani kamaytirish va spektral samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Ushbu usul an'anaviy CP o'rniga qo'llanilib, signal uzatish samaradorligini oshirish va interferensiyalarni kamaytirishga xizmat qiladi. SISO ZP-OFDM tizimi uchun bir qator baholash usullari modellashtirildi.

Simulyatsiya natijalari ZP usuli asosida SISO-OFDM tizimida kvadraturali fazaviy manipulyatsiya (Quadrature Phase Shift Keying, QPSK) va 16-QAM modulyatsiya sxemalariga asoslangan holda baholangan. O‘rtacha kvadrat xatolik (Mean Squared Error, MSE)ni taqqoslash natijalari 5-rasmda keltirilgan bo‘lib, u tavsiya etilgan yarim mavhum kanal bahosining LS kanal bahosiga nisbatan 6,0-6,5 dB, an’anaviy yarim mavhum kanal bahosiga nisbatan 1,5-2,0 dB ustunligini ko‘rsatgan.



5-rasm. ZP usuli asosida SISO-OFDM tizimlarida QPSKga asoslangan me'yorlashtirilgan o'rtacha kvadratik baholash (NMSE) yordamida kanalni baholash.

Hisoblab chiqilgan natijalar shuni ko‘rsatdiki, radiomonitoring jarayonining samaradorligini oshirish uchun biz tomonimizdan taklif qilingan usul olingan MSE va NMSE parametrlariga asosan ustunroq ekan. Shunday qilib, radiomonitoring uchun ZP usuli asosida SISO-OFDM tizimlarida optimallashtirilgan yarim mavhum kanalni baholash usulini qo‘llash turli xil chastotali muhit sharoitlarida ma’lumotlarni qabul qilishni samarali boshqarish va nazorat qilish imkonini beradi.



6-rasm. Radiomonitoring samaradorligini oshirish modeli.

Radiomonitoring samaradorligini oshirishda signallarni tanib olish algoritmlarini qo‘llash bo‘yicha modelning nazariy asoslari quyidagi 6-rasmda taqdim etilgan. Bunda model qabul qiluvchi LPDA hamda ZP usuli va EP algoritmi asosida signalni tanib olish imkoniga ega moduldan iborat, ushbu modul qabul qiluvchi qurilma tomonidan ZP usuli asosida pilot signallarni tanib olish jarayonining samaradorligini oshiradi va EP algoritmi asosida signalni qabul qilishda xatoliklar sonini kamaytirish imkonini beradi.

Dessertatsiyaning “Radiomonitoring samaradorligini takomillashgan logoperiodik vibratorli antenna modeli asosida oshirish” deb nomlangan uchinchi bobida radiomonitoring nazorat jarayonida qo‘llaniladigan statsionar, mobil va portativ stansiyalarda ishlatiladigan LPDAning konfiguratsiyasi, qonuniyatlari, matematik modeli, o‘lchamlarini kichraytirish usullari va loyihalash jarayonlari ko‘rib chiqilgan. Antenna ishlash samaradorligini oshirish maqsadida optimal o‘lchamlar hamda parametrlari matematik model va u asosida yaratilgan dasturiy vosita orqali aniqlangan.

Antennalar dipolining uzunligi (1) ifodada keltirilgan τ o‘lchamsiz koeffitsientiga bog‘liq holda logarifmik qonuniyat asosida o‘zgarib borishi ko‘rsatilgan.

$$\tau = \frac{l_{n+1}}{l_n} = \frac{X_{n+1}}{X_n} = \frac{d_{n+1}}{d_n} = \frac{a_{n+1}}{a_n}, 1 \leq n \leq N. \quad (1)$$

Shuningdek, antenning dipollari orasidagi masofani aniqlashda qo‘llaniladigan σ qatorlararo koeffitsiyenti quyidagi formulalar orqali aniqlangan

$$\sigma = \frac{d_n}{2L_n}. \quad (2)$$

ushbu koeffitsiyentlar o‘zaro quyidagi ifoda asosida bog‘langan

$$\sigma = 0,25(1 - \tau) \operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} \quad (3)$$

Demak, α antenna ochilish burchagi o‘zgarishi σ qatarlararo koeffitsiyent qiymati o‘zgarishiga olib keladi, α quyidagi formula orqali aniqlangan.

$$\operatorname{ctg} \frac{\alpha}{2} = \frac{4\sigma}{1 - \tau}. \quad (4)$$

O‘lchamsiz koeffitsiyenti τ strukturasi har bir davri, ma’lum bir qatarlararo koeffitsiyent σ_{opt} ga to‘g‘ri keladi va o‘shandagina maksimal antenning kuchaytirish koeffitsientiga erishiladi.

$$\sigma_{opt} = 0,258\tau - 0,066 \quad (5)$$

LPDAlarning ishchi chastota diapazoni uchun eng kichik chastotada ishlovchi dipol uzunligi l_{max} va eng katta chastotada ishlovchi dipolning uzunligi l_{min} bilan chegaralanadi. LPDAlar dipollarining o‘lchamlarini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanilgan

$$l_{max} \approx \frac{\lambda_{max}}{2} \quad \text{va} \quad l_{min} \approx \frac{\lambda_{min}}{3}. \quad (6)$$

Bajarilgan matematik hisoblashlar asosida, 400÷3000 MHz gacha bo‘lgan chastota diapazonida radiomonitoring jarayonida ishlatiladigan LPDAni yasash uchun kerak bo‘ladigan barcha parametrlar aniqlangan.

Dastur yordamida dipollarning uzunligi l , ular orasidagi masofa R va dipollarning kengligi W ning qiymatlari aniqlash uchun dasturiy vosita ishlab chiqilgan va olingan natijalar quyidagi 7-rasmda keltirilgan.

Logperiodik antenaning parametrlarini hisoblash dasturi

Ma'lumotlar

	I	R	W
O'lcham ko'effitsient (t) 0.89	3.75		12
	3.34	0.43	10.68
	2.97	0.38	9.51
	2.64	0.34	8.46
Pastki chegara chastotasi (fp) MGs 400	2.35	0.3	7.53
	2.09	0.27	6.7
	1.86	0.24	5.96
	1.66	0.21	5.31
	1.48	0.19	4.72
	1.31	0.17	4.2
Yuqori chegara chastotasi (fyu) MGs 3000	1.17	0.15	3.74
	1.04	0.13	3.33
	0.93	0.12	2.96
	0.82	0.11	2.64
	0.73	0.1	2.35
Antenna cho'qqisining burchagi (α , grad) 23	0.65	0.09	2.09
	0.58	0.08	1.86
	0.52	0.07	1.66
	0.46	0.06	1.47
	0.41	0.05	1.31
LPDA dipollarining eni (Wn, mm) 12	0.36	0.05	1.17
	0.32	0.04	1.04

NATURA

7-rasm. LPDA hisoblash dasturi.


Dastur hisob-kitob jarayoni uchun sarflanadigan vaqtni qisqartirishga va natijalar aniqligini ta'minlash imkonini beradi.

LPDA o'lchamini kamaytirishning asosiy usullaridan biri fraktallar texnikasidan foydalanishdir. Bu LPDA Koch fraktal geometriya modeli o'rtasidagi qo'shma texnikadan foydalangan holda ishlab chiqilgan bo'lib, bunda antenna hajmi "T" fraktal geometriya hosil qilish orqali antenna o'lchamlarining kichrayishiga erishilgan. Antenna o'lchamlari antenna cho'qqisining burchagi α ni 2,35 marta kattalashtirganligi hisobiga antenaning umumiy hajmini 12,6 % ga kichraytirishga ham erishilgan.

CST Studio Suite dasturi asosida antenna modeli immitatsion modellashtirilgan va simulyatsiya asosida olingan natijalar bo'yicha optimallashtirilgan. Simulyatsiya natijalarida S parameter, yo'nalish diagrammasi va turg'un to'lqinning kuchayish ko'effitsienti asosida baholangan.


Simulyatsiya asosida olingan natijalar antenaning ochilish burchak ko'effitsiyenti 46° gradusga teng bo'lganda antenna samarali ishlash diapazoni 400 MHzdan 2880 MHzgacha bo'lishini ko'rsatdi va bu eng optimal natija hisoblanadi. Ushbu chastota diapazonining faqat 100 MHzlik 2270 MHzdan 2370 MHzgacha chastota polasasida KTTKning maksimal qiymati 2.07 ga teng bo'lgan (8-rasm).

LPDAning ochilish burchak qiymati $46,0^\circ$ ga teng bo'lganda, boshqa burchaklarga nisbatan 0.4-3.0 GHz chastota diapazonida KTTK eng optimal qiymatni qabul qildi. Ushbu natija antenaning elektromagnit moslashuvini sezilarli darajada yaxshilab, energiya uzatish samaradorligini oshirgan holda, radiomonitoring tizimlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.




8-rasm. 0,4-3,0 GHz chastota diapazonidagi LPDA ochilish burchagining qiymati $46,0^\circ$ ga teng bo'lgandagi KTTK.

Matematik model va imitatsion modell asosida olingan natijalar bo'yicha logoperiodli dipolli antenna modeli optimallashtirilgan o'lchamlari aniqlangan hamda antannaning real modeli ishlab chiqilgan (9-rasm).



9-rasm. Ishlab chiqarilgan antannaning o'lchamlari (a) va tashqi (b) ko'rinishi.


Radiomonitoring jarayonida antenna ishlash samaradorligini aniqlash maqsadida o'lchov ishlari amalga oshirilgan va grafik (10-rasm) ko'rinishiga keltirilgan. Antennalarning imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun shtir antenna, HE-400 UWB yo'naltirilgan antenna va modellashtirilgan LPDA o'zaro solishtirilgan.



10-rasm. Antennalar bo'yicha o'tkazilgan o'lchovlar natijalari.

Ushbu antenning parametrlarini shtirli antenna bilan taqqoslaganda signal sathi 18,8 dBga, HE-400 UWB antenadan esa 12,7 dBga yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Antenna imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun yaratilgan LPDA, HE-400 UWB yo‘naltirilgan antenna bilan solishtirildi. Ushbu natijalar asosida, shuni aytishimiz mumkinki, yaratilgan LPDAning signal sathi darajasi HE-400UWB antenaga nisbatan 11,8 dB ga yuqori ekanligi, foizlarda esa 13,2 foizga samaraliroq ekanligi aniqlandi.




11-rasm. LPDA antenning 500 MHz chastotada yo‘nalish diagrammasi

Yaratilgan LPDAning yo‘nalganlik diagrammasining simmetriyasi an’anaviy LPDAning yo‘nalganlik diagrammasi bilan o‘xshashligi 11-rasmda keltirilgan. Bu simulyatsiya natijalarining ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Televizion uzatkichlar signallarining HE-400 UWB va ishlab chiqilgan LPDA orqali qabul qilingan maydon kuchlanish darajalari ($\text{dB}\mu\text{V}$) bo‘yicha o‘lchov natijalari olindi. Olingan grafik ma‘lumotlar tahliliga ko‘ra, LPDA barcha kanallar chastota diapazoni bo‘yicha HE-400 UWB antenasiga nisbatan yuqoriroq maydon kuchlanish sathini qayd etgan. Ayniqsa, 610 MHz chastotada LPDA maksimal 5 $\text{dB}\mu\text{V}$ farq bilan ustunlik namoyon etgan bo‘lib, bu antenning ma‘lum chastota oralig‘ida sezilarli darajada samaraliroq ishlashini ko‘rsatadi. Qolgan barcha o‘lchov nuqtalarida ham LPDA signallarni barqaror va yuqori darajada qabul qilgan, bu esa uning spektral sezgirligi yuqoriligi va qabul qilish xususiyatlari yaxshilanganini tasdiqlaydi.

Yaratilgan LPDA va “HE-400 UWB” antenadan foydalangan holda televizion kanallar chastota polosasining efir bo‘yicha maydon kuchlanganlik, bit xatolari koeffitsiyent (BER), modulyatsiya xatolari darajasi va signal shovqin nisbat parametrlari qiymatlari o‘lchandi va qiyosiy tahlil qilindi.



a)

b)

12-rasm. Televizion kanal chastota polosasining HE-400 UWB va LPDAlardagi a) signal sathi darajasining va b) bit xatolari darajasi o‘lchovlar natijalari.

LPDA barcha chastotalarda HE-400 UWB ga nisbatan yuqoriroq SNR ko‘rsatkichlariga ega ekanligi kuzatiladi. 554 MHz chastotada SNR eng past bo‘lib, HE-400 UWB uchun 25,9 dB, LPDA uchun 26,8 dB ni tashkil etadi. 610 MHz chastotada eng yuqori natija qayd etilgan bo‘lib, HE-400 UWB 40,6 dB, LPDA 41,9 dB ga yetgan. Qolgan chastotalarda ham LPDA antenasi ustunlik ko‘rsatib, signal sifati va shovqinga chidamliligi yaxshiroq ekanini namoyon qilgan.

Televizion kanal chastota polosalarining o‘lchangan qiymatlaridan ko‘rinib turibdiki, LDPC bo‘yicha kodlangan signallarning maydon kuchlanganligi, BER, MER va SNR kabi parametrlari HE-400 UWB antennaga nisbatan LPDAda barcha parametrlar bo‘yicha yuqori ekanligi aniqlandi.

XULOSA

“Ultra yuqori chastota diapazonida radiomonitoring samaradorligini oshirishning modeli va algoritmi” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiya ishida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili logoperiodik dipol antennalardan foydalanishning muhimligini hamda ularni takomillashtirishning dolzarbligini tasdiqladi. Keng chastota diapazonida ishlash uchun yuqori samaradorlikka ega ixcham antenna qurilmalariga bo‘lgan ehtiyojni aniqladi. Bu antennalar parametrlarini optimallashtirish va signalni kuchaytirish orqali radiomonitoring sifatini yaxshilashga yordam berishi aniqlandi.

2. EP algoritmini LDPC-kodlash va OFDM tizimlari bilan birgalikda joriy etish radiomonitoring unumdorligini oshirishda o‘zining samaradorligini isbotladi. Ushbu usullar signallarni aniq dekodlashni ta‘minlaydi va ehtimollik noaniqligini kamaytiradi, bu esa murakkab aloqa tizimlarida ma‘lumotlarni qayta ishlashni yaxshilaydi.

3. ZP usuli asosida SISO OFDM tizimi uchun yarim mavhum kanallarni baholash usullari, shu jumladan LS-SLS shovqin tufayli yuzaga keladigan xatoliklarni minimallashtirish qobiliyatini ko‘rsatdi va kanal parametrlarini

baholash aniqligini oshirdi. Bu real xalaqitlar sharoitida radiomonitoringning ishonchlilik va aniqligini oshirish imkoniyatini beradi.

4. Radiomonitoring sohasida qo'llashga mo'ljallangan, 400÷3000 MHz chastota diapazonida ishlash qobiliyatiga ega optimallashtirilgan logoperiodli dipolli antenaning matematik, imitatsion va fizik modellari ishlab chiqildi. Ushbu modelning samaradorligi simulyatsiya va real tajribalar asosida tahlil qilindi.

5. Loyihalangan LPDAning fizik modeli ishlab chiqilgan va uning radiomonitoringdagi samaradorligini aniqlash maqsadida o'lchov ishlari amalga oshirilgan. Ushbu antenaning parametrlarini shtirli antenna bilan taqqoslaganda elektromagnit maydon kuchlanganlik darajasi 18,8 dB ga, HE-400 UWB antennadan esa 12,7 dB ga yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Mobil aloqa operatorlari baza stansiyalari chastota diapazonlarida ham o'lchov ishlari olib borildi va yaratilgan LPD antenna HE-400UWB antennaga nisbatan 13,2 foizga samaraliroq ekanligi aniqlandi.

6. Radiomonitoringda ma'lumotlarni qabul qilish jarayonida LDPC kodlash usulidan foydalangan holda loyihalangan LPDA ishlatilganda 540÷640 MHz chastota diapazonida maydon kuchlanganligi, bit xatolik koeffitsiyenti (BER), modulyatsiya xatolik koeffitsiyenti (MER) va signal-shovqin nisbati (SNR) parametrlarining son qiymatlari o'lchangan. O'lchov jarayonida HE-400 UWB antennaga nisbatan LPDAning ko'rsatkichlari barcha parametrlar bo'yicha yuqori ekanligi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ
ТЕХНОЛОГИЙ**

ОЛМАСОВ АХМАД АСАДОВИЧ

**МОДЕЛЬ И АЛГОРИТМ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ
РАДИОМОНИТОРИНГА В УЛЬТРАВЫСОКОЧАСТОТНОМ
ДИАПАЗОНЕ**

**05.04.02 - Системы и устройства радиотехники, радионавигации, радиолокации и
телевидения. Мобильные, волоконно-оптические системы связи**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2024.3.PhD/T4895.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада аль-Хоразмий.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net)

Научный руководитель: **Мирзокулов Хотам Бахтиёр угли**
доктор философии по техническим наукам, доцент

Официальные оппоненты: **Алимова Нодира Батирджановна**
доктор технических наук, профессор

Шахобиддинов Алишер Шопатхиддинович
доктор философии по техническим наукам, доцент

Ведущая организация: **Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи Университета военной безопасности и обороны**

Защита диссертации состоится «1» ноября 2025 г. в 11³⁰ часов на заседании Научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.02 при Ташкентском университете информационных технологий (Адрес: 100084, г.Ташкент, ул. Амира Темура, 108.Тел.: (99871) 238-64-15; e-mail:tuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 375). Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-64-15.

Автореферат диссертации разослан «21» октября 2025 года.

(протокол рассылки № 13 от «21» октября 2025 г.).

Б.Ш.Махкамов

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

М.С.Саиткамолов

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

Д.А.Давронбеков

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению учёных степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мире применение современных технологий в эффективной организации процесса радиомониторинга в ультравысокочастотном диапазоне занимает одно из ведущих мест. По данным "Verified Market Reports," объем рынка устройств в диапазоне UHF в Северной Америке в 2023 году составил 900 миллионов долларов США, к 2032 году он, как ожидается, вырастет до 1,9 миллиарда долларов со среднегодовым темпом роста 8,5 процента, а в Азиатско-Тихоокеанском регионе в 2023 году рынок составит 650 миллионов долларов и, как ожидается, увеличится до 1,7 миллиарда долларов со среднегодовым темпом роста 11,0 процента¹. В связи с этим совершенствование процесса радиомониторинга имеет важное значение для обеспечения точной и безошибочной работы этих устройств в диапазоне УВЧ.

В мире в современных системах радиосвязи и технологиях мобильной связи проводится ряд научно-исследовательских работ, направленных на разработку методов эффективной организации процесса передачи информации в ультравысоких и сверхвысоких частотных диапазонах с расширяющимся объемом, скоростью и качеством передачи, стабильностью сигнала и помехоустойчивостью. В связи с этим особое внимание уделяется выявлению и анализу больших объемов сигналов, распространяющихся в среде, закодированных помехоустойчивыми кодами, разработке и совершенствованию алгоритмов обнаружения и классификации сигналов в высокоэффективных системах радиомониторинга, повышению их охвата, чувствительности и эффективности работы в частотном диапазоне за счет улучшения размеров и электромагнитных параметров логопериодических антенн, а также технологиям обеспечения устойчивости этих технологий к помехам, факторам внешней среды и сложным электромагнитным условиям.

В республике реализуются комплексные меры по дальнейшему совершенствованию сферы радиосвязи и информационных технологий, расширению охвата систем мобильной связи, развитию систем, обеспечивающих скорость и качество передачи данных, и достигаются определенные результаты. В Стратегии Президента Республики Узбекистан "Цифровой Узбекистан-2030" от 5 октября 2020 года определены важные задачи по "Совершенствованию цифрового вещания с полным охватом всех видов телевизионных и радио услуг, включая передачу телевизионного сигнала потребителям, наземное телевизионное вещание, кабельное телевидение, IP-телевидение, сети передачи данных, мобильную связь, телерадиовещание с использованием интернет-технологий"². При выполнении этих задач важное значение имеет разработка новых алгоритмов декодирования сигналов, усовершенствованной модели антенны, а также теоретических основ и практических решений их внедрения, основанных на

¹<https://dataintel.com/report/global-ultra-high-frequency-uhf-receiver-market>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni.

повышении эффективности приемных устройств радиомониторинговых систем.

В республике в целях обеспечения эффективной работы сетей радиосвязи, использования радиочастотного спектра, повышения качества услуг телерадиовещания и мобильной связи, Президентом Республики Узбекистан Шавкатом Мирзиёевым от 22 мая 2019 года было подписано постановление № ПП-4939 “О мерах по ускоренному развитию телекоммуникационной инфраструктуры в населенных пунктах Республики Узбекистан”. Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Законе Республики Узбекистан от 27 декабря 2024 года № ЗРУ-1015 "О телекоммуникациях," Постановлении Президента Республики Узбекистан от 28 апреля 2020 года № ПП-4699 "О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства," а также в других нормативно-правовых документах, в том числе в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 22 декабря 2020 года № 801 "О разрешении в области использования радиочастотного спектра и регулировании использования радиоэлектронных средств и высокочастотных устройств," а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий республики IV. “Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий”.

Степень изученности проблемы. В настоящее время научные исследования по разработке методов и моделей повышения эффективности радиомониторинга, теоретических и практических основ создания используемых в них алгоритмов и антенн проводятся в ведущих научных центрах и высших учебных заведениях мира, в том числе Stanford University (США), Georgia Institute of Technology (США), Harbin Engineering University (Китай), National University of Defense Technology (Китай), Yeungnam University (Корея), Istanbul Aydin University (Турция), University of Toronto (Канада), University of British Columbia (Канада), Karlsruhe Institute of Technology (Германия), Dresden University of Technology (Германия), University of Cambridge (Великобритания), Southampton University (Великобритания), Sharif University of Technology (Иран), Artois University (Франция), Nihon University (Япония), Amity University (Индия), Рязанский государственный радиотехнический университет им. В.Ф.Уткина (Россия), Ташкентский университет информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий (Узбекистан) и др.

